



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Амир Темурнинг одилона иқтисодий сиёсати – кудратли империянинг шаклланиш ва ривожлантириш омили	5
Дилфуза Олимбоевна Матёкубова Бизнес тузилмаларини инновацион ривожлантириш учун диверсификация стратегиясини танлаш истиқболларини баҳолаш тартиби ва усуллари	12
G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullaev Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish inson kapitali samaradorligini oshiradi	16
Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva, Madina Isoqjonovna Oxunjonova Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari	21
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Гулнора Мардиевна Шадиева Влияние инновационных процессов на экономическое развитие Республики Узбекистан: теоретические аспекты	26
Omonilla Saydaminovich Umarov, Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev Iqtisodiy xavfsizlikini ta’minlashda ochiq ma’lumotlar sohasining ahamiyati	31
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузибой Нормухаматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов Мева-сабзавотларда бўладиган нитратлардан келадиган хавфлар ва уларнинг олдини олиш йўллари	35
Гулнора Мардиевна Шадиева, Умида Равшановна Равшанова Теоретические аспекты занятости в сельском хозяйстве и их влияние на развитие экономики Республики Узбекистан	38
Сусанна Сейрановна Алиева Солнечная энергетика в тепличном хозяйстве	44
Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi	49
Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li Turg‘unov Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish masalalari	55
Абдухолик Эгамович Тангиров Чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликлари ва уларни бошқаришдаги айрим муаммолар	58
Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik korxonalarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va foydalanishning iqtisodiy ahamiyati	62
Xakim Toshimovich Buriyev Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslari	66
МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Саидахроп Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзбекистонда таълим самарадорлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича айрим тавсиялар	72
Обид Мамаюнусович Пардаев Кўп ўлчовли камбағалликни аниқлашнинг янги индикаторлари ва уларнинг моҳияти	78

7. Оқункова Е.А. Рол человеческого капитала в инновационном развитии экономических систем / Е.А. Оқункова // Глобальный научный потенциал. – 2018. – №11 – С. 120–123.
8. Голубкин В.Н. Интеллектуальный капитал в эпоху глобализации мировой экономики. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.oulink.ru/pub/business_obraz_1_18.htm
9. G‘.Z. Ubaydullaev “Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omili”. Monografiya. Qarshi “Intellekt” nashriyoti, 2023.
10. www.undp.uz – O‘zbekistondagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi veb sayti.
11. <https://ziyonet.uz> – Ta’lim portali

Г.Убайдуллаев	G.Ubaydullaev
<p>Реализация стратегии социально-экономического развития в стране залог эффективности человеческого капитала</p>	<p>Implementation of the socio-economic development strategy in the country is the key to the effectiveness of human capital</p>
<p>Аннотация. Цель исследования - изучение методологических, теоретических и практических основ факторов развития эффективности человеческого капитала при реализации стратегии социально-экономического развития страны. В целях развития человеческого капитала в новом Узбекистане рассмотрен анализ практической работы, направленной на совершенствование образования, знаний, навыков, умений, мотивации, профессиональной ориентации, науки, здравоохранения и культуры.</p> <p>Ключевые слова: образование, система образования, человеческий капитал, инвестиции в человеческий капитал, качество образования, медицинские услуги, инновационная экономика, мировой опыт.</p>	<p>Abstract. The purpose of the study is to study the methodological, theoretical and practical foundations of the development factors of human capital efficiency in the implementation of the socio-economic development strategy of the country. In order to develop human capital in the new Uzbekistan, an analysis of practical work aimed at improving education, knowledge, skills, abilities, motivation, career guidance, science, health care and culture is considered.</p> <p>Keywords: education, education system, human capital, investments in human capital, quality of education, medical services, innovative economy, world experience.</p>

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva – NamMTI “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD
Madina Isoqjonovna Oxunjonova – NamMTI “Iqtisodiyot” yo‘nalishi magistri

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “yoshlar tadbirkorligi” tushunchasining mazmun-mohiyati, uni rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi mavjud muammolar bayon etilib, mazkur muammolarni bartaraf etish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, yoshlar biznes-inkubatorlari, biznes loyiha, yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikma va malakalari, o‘quv vebinarlar, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash

Kirish. Yoshlar tadbirkorligi yoshlarning moddiy ahvolini mustahkamlashga, ularning kasbiy va shaxsiy o‘zini-o‘zi anglashiga hamda rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni innovatsion o‘zgartirish jarayonlari uchun yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish muhimligini, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy moslashuvi jarayonini boshqarish, ularni faolligini oshirishning dolzarbligini hisobga olgan holda, maksimal ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini ta’minlash, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmi – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini hal qilishning markaziy elementi ekanligini ta’kidlashimiz mumkin.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzalarida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga

o‘qitish orqali ularning bandligini ta‘minlash va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish kabi muhim yo‘nalishlarda ishlarni tashkil qilishni zarurligini ko‘rsatib o‘tdilar.

Shu maqsadda mamlakatimizda sohaga doir bir qancha me‘yoriy hujjatlar qabul qilinib unda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari rejalashtirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6208- sonli¹, 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-sonli² qarorlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, ular uchun kredit ajratishda haligacha ko‘plab kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida ham ko‘plab muammolar bor. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi mazkur muammolarning saqlanib qolishi mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy iqtisodiyotning eng so‘nggi namoyon bo‘lish shakllaridan biri – bu yoshlar tadbirkorligi hisoblanadi. Bir narsani anglash lozimki, yoshlar jamiyatning eng faol va ijodkor qismi bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy hayotida samarali ishtirok eta oladi, bundan tashqari yoshlar hamma narsani oson idrok etadigan va tavakkal qilishga tayyor bo‘lgan aholi qismidir.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “yoshlar tadbirkorligi” tushunchasiga bo‘lgan ta‘riflardagi tafovutlar turli mamlakatlarning an‘analari, madaniyati, siyosati va eng muhimi, tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotidagi farqlarga bog‘liq.

Yoshlarda iqtisodiyotga oid tushunchalar va bilimlarni rivojlantirish orqali tadbirkorlik sohasidagi munosabatlar ochib beriladi. Tadbirkorlik sohasiga oid munosabatlar iqtisodiy munosabatlarning ichki bog‘liqligini ko‘rsatadi, shunga ko‘ra o‘zgarib turadi³-deb ta‘kidlaydi N.M.Ulug‘muradova o‘zining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat munosabatlarini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari” nomli tadqiqot ishida. Uning mexanizmi elementlarning yaxlitligi, unga ta‘sir etuvchi usullarga bog‘liqdir⁴. Tadbirkorlik mexanizmini shakllanishning bir tomondan nazariy yondashuvlari, ikkinchi tomondan bu sohaning xususiyatlari to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish oliy ta‘limda amalga oshiriladi.⁵

Soha olimlarining ta‘kidlashicha, hozirgi vaqtda ushbu mavzu bo‘yicha adabiyotlar ko‘p emas, shu bilan birgalikda yoshlar tadbirkorligi tushunchasining yagona ta‘rifi mavjud emas. Ko‘pincha uning ta‘rifida subyektning yoshini ko‘rsatib, keng ma‘noda tadbirkorlik ta‘rifidan foydalanish holatlari kuzatiladi. Misol uchun, “Youth Business International (YBI)” yoshlarni 35 yoshgacha bo‘lgan fuqarolar deb belgilaydi, BMT esa 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni belgilaydi, Global Monitor dasturiga ko‘ra, yosh tadbirkorlar 25-34 yosh guruhidagi tadbirkorlardir.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda esa “yoshlar (yosh fuqarolar) — o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208- sonli farmoni. <https://lex.uz/doss/5382151>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/4230944>

³ Улугмурадова Н.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik соҳасида меҳнат муносабатларини такомиллаштиришнинг иқтисодий механизмлари. Иқтис.фан.бўй.фал.док. (PhD) дис. -Тошкент., 2020.67-б.

⁴ Ибрагимов И.У. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида тadbirkorlik фаолиятини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. (Наманган вилояти мисолида). Иқтис.фан.бўй.фал.док. (PhD) дис. - Тошкент., 2019. 71-б.

⁵ Ерошенко Е.П. Организационно-экономический механизм развития молодёжного предпринимательства на основе взаимодействия с партнерами университета. Дисс... канд.эконом.наук. Екатеринбург -2021. 30-с.

yoshlar tadbirkorligi — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta’rischilari yosh fuqarolar bo’lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati” deb ta’rif beriladi.¹

Tadqiqot tahlillaridan kelib chiqqan holda, biz yoshlar tadbirkorligining quyidagi ta’rifini shakllantirishimiz mumkin: *yoshlar tadbirkorligi* – bu birinchi navbatda o’zini-o’zi boshqarishga qaratilgan, o’ziga xos xususiyatlar (moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, innovatorlik)ga ega bo’lgan o’zini namoyon qiluvchi guruh bo’lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shuningdek, yoshlarni band qilish va unga munosib ish haqi bilan ta’minlashga yo’naltirilgan faoliyat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida olimlarning yoshlar tadbirkorligiga xos yondashuvlari va undagi muammolar o’rganildi, tegishli xulosalar shakllantirildi. O’rganilgan ma’lumotlar asosida kuzatish, umumlashtirish va mantiqiylik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirda mamlakatimizning doimiy aholisi soni 36 963,3 ming kishidan ortdi. Aholini 14-30 yoshgacha bo’lgan qatlami 9 640,0 ming kishiga teng bo’lib, shundan 4939,8 ming nafar (26,7%) i erkak, 4700,2 ming nafar (25,7%) i ayol jinsiga mansub.²

Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida so’nggi besh yilda 60 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi, 30-iyun — “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 22,9 foizi (106 ming 574 tasi) 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar hissasiga to’g’ri keladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning 21,5 foizini (71 ming 467 tani) 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatda 3,4 mingga yaqin yosh fermerlar, 7,8 mingga yaqin yosh hunarmandlar faoliyat yuritadi.

Bugungi kunda 18-30 yoshlilar orasida rasmiy ishsizlik 17 foizni tashkil etib, bu boradagi masalalarni tizimli hal etish maqsadida Respublika ishchi guruhi joylarda o’g’il-qizlarning takliflarini “mahallabay” o’rganishni yo’lga qo’yish ishlari tashkillashtirilgan.

Shu bilan birga yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o’rin tutadigan ta’lim tizimida ulkan o’zgarishlar amalga oshirilmogda. O’zbekistonda 2023-yilda 7 ta yangi oliy ta’lim muassasasi faoliyati yo’lga qo’yilgan va ularning soni jami 213 taga yetgan.³

2023-2024-o’quv yili uchun 48 ta davlat oliy ta’lim muassasasining 20 ta xorijiy mamlakat bilan hamkorlikdagi qo’shma ta’lim dasturlari ekspertizadan o’tkazildi. Ijobiy xulosa berilgan 289 ta qo’shma ta’lim dasturi uchun 6 818 ta kvota berilgan.

Ta’limda tadbirkorlik bilim va ko’nikmasini egallash bo’yicha tadqiqotchi A.A.Abdurashidov, yoshlarda iqtisodiy bilimlarni boyitib borish, shuningdek insonparvarlik g’oyalari shakllantirib, yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantirish orqali – yoshlarda tadbirkorlik ko’nikmasi rivojlanadi, - deb fikr bildiradi.⁴

M.B.Artikovaning talqinicha, amalda egallangan ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni qo’llay olish, kichik tadbirkorlikda ma’lum tajribaga ega bo’lish, mumkin bo’lgan muammolarni ko’ra bilish, yangi g’oyalarni izlash, topish, uddaburonlik, shaxsiy qiziqish bilan jamoa manfaatini uyg’unlashtirish layoqatining yig’indisini tadbirkorlik ko’nikmasi deyiladi.⁵

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, turli mamlakatlarda yoshlar tadbirkorligi uchun qabul qilingan ma’lum yosh chegaralarini mavjud bo’lib, ularni quyidagicha ajratib ko’rsatish mumkin:

- Rossiya - 18 yoshdan 30 yoshgacha;

¹<https://lex.uz/acts/3026246>

²https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=436&id=3334&Itemid=1000000000000

³Ўзбекистондаги олийгоҳлар ва улардаги талабалар сони маълум қилинди. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/14/ozbekistondagi-otm-va-ular-da-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi>

⁴Абдурашидов А.А. Миллий хунармандчилик воситасида талабаларда тadbirkorlik кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. 13.00.01-“Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи” педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент-2019 й. 67-б

⁵Артикова М.Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тadbirkorlik кўникмаларини ривожлантириш. пед.фан.доктор. (DSc) дисс...автореф.-Наманган. 2020.16-б.

- AQSh - 18 yoshdan 34 yoshgacha;
- Kanada - 18 yoshdan 35 yoshgacha (qo‘llab-quvvatlashning ayrim sohalarida 29 gacha);
- Buyuk Britaniya - 16-24 yosh;
- Hindiston - 25 yoshdan 40 yoshgacha;
- Xitoy - 18 yoshdan 35 yoshgacha.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek bu tafovutlar turli mamlakatlarning an’analari, madaniyati, tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotidagi farqlarga bog‘liq.

Olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlashimiz mumkinki, keng ma’noda tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan yoki to‘sqinlik qiluvchi ko‘plab omillar ham yoshlar tadbirkorligiga ta’sir qiladi. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ayrim muammolar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin: biznes-inkubatorlar va texnoparklarda tadbirkorlik firmalarining loyihalarini amalga oshirish uchun to‘liq shart-sharoitlarning yo‘qligi; biznes loyihalarni boshqarish bo‘yicha bilim va tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni juda kamligi; xizmatlar ko‘rsatishni qoniqarsizligi; bozor tadqiqotlarini o‘tkazish va bozorga kirish (muzokaralar, taqdimotlar va mijozlarni qidirish)dagi faollikning pastligi; yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikma va malakalarini rivojlanishining pastligi; biznes-firmalar doirasida hamkorlik tarmoqlarini sust rivojlanganligi; biznes-korxonalar faoliyatini to‘liq monitoring qilish tizimini takomillashmaganligi; biznes-subyektlarining samarali faoliyatining uzluksizligini ta’minlash uchun domiy homiyar va kafillarning mavjud emasligi.

Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda berilgan taklif va tavsiyalar amalga oshirilsa, quyidagi natijalarga erishiladi deb o‘ylaymiz: raqobatbardosh yosh kadrlarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga tayyorlashda biznes-inkubatorlar va ilmiy parklar rivojlantiriladi, shuningdek, yoshlarning innovatsion ijtimoiy va biznes loyihalarini moliyalashtirishni jalb qilish uchun innovatsion platformaga aylanadi; yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakllari va usullari yoshlar tadbirkorligini makro va mikro darajada qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini tashkil etish imkonini beradi; yoshlarni ish bilan bandlik darajasini oshirishga yordam beradi; yosh oilalarni qo‘shimcha daromad manbaini shakllantirishga yordam beradi; yosh mulkdorlar sinfini shakllantirishga hissa qo‘shadi va boshqa shu kabilar.

Xulosa va takliflar. Mazkur yo‘nalishni rivojlantirish yoshlarning tadbirkorlik sohasida amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga yo‘naltirilgandir. Ushbu yo‘nalishni amalga oshirish doirasida quyidagi tadbirlar rejalashtiriladi va amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitishni moliyalashtirish va ta’sis hujjatlarini ishlab chiqishda ko‘maklashish;
- quyidagi yo‘nalishlarda: o‘z mehnati bilan biznes-rejani shakllantirish; investorni qanday jalb qilish kerak; birinchi sotuvlar; davlat yordamini qanday olish kerak; hamfikrlar jamoasini qanday shakllantirish lozim; yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik bo‘yicha o‘yin va o‘quv tadbirlari, o‘quv kurslari, fakultativ mashg‘ulotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- obyektiv baholashning kompleks tizimi yordamida kichik biznesda ishlash istagida bo‘lgan yoshlarni tanlash, sinovdan o‘tkazish va ishbilarmonlikka moyilligini aniqlash tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/4230944>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya

qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-sonli farmoni. <https://lex.uz/doss/5382151>

3. Абдурашидов А.А. Миллий хунармандчилик воситасида талабаларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. 13.00.01-“Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи” педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент-2019 й. -140 б.

4. Артикова М.Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш. пед.фан.доктор. (DSc) дисс...автореф.-Наманган. 2020. -63 б.

5. Ибрагимов И.У. Иқтисодийти модернизациялаш шароитида тадбиркорлик фаолиятини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. (Наманган вилояти мисолида). Иқтис.фан.бўй.фал.док. (PhD) дис. -Тошкент., 2019. 71-б.

6. Улуғмуратова Н.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасида меҳнат муносабатларини такомиллаштиришнинг иқтисодий механизмлари. Иқтис.фан.бўй.фал.док. (PhD) дис. -Тошкент., 2020. -188 б.

7. Ерошенко Е.П. Организационно-экономический механизм развития молодежного предпринимательства на основе взаимодействия с партнерами университета. Дисс... канд.эконом.наук. Екатеринбург -2021. -206 с.

8. Ўзбекистондаги олийгоҳлар ва улардаги талабалар сони маълум қилинди. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/14/uzbekistondagi-otm-va-ular-da-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi>

9. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=436&id=3334&Itemid=1000000000000

10. <https://lex.uz/acts/3026246>

<p style="text-align: center;">Ф.Эргашева, М.Охунжонова</p> <p style="text-align: center;">Задачи развития молодежного предпринимательства</p> <p>Аннотация. Сегодня в процессе развития малого бизнеса изменяются ранее сформировавшиеся представления о методах, критериях и механизмах создания собственного дела. Одной из таких новых форм является молодежное предпринимательство, представляющее собой организацию молодыми людьми малого бизнеса. В статье раскрыта сущность понятия “молодежное предпринимательство” и актуальность его развития. Также были описаны существующие проблемы в развитии молодежного предпринимательства и разработаны соответствующие рекомендации по устранению этих проблем и развитию молодежного предпринимательства.</p> <p>Ключевые слова: молодежное предпринимательство, молодежные бизнес-инкубаторы, бизнес-проект, предпринимательские навыки и компетенции молодежи, образовательные вебинары, поддержка молодежного предпринимательства.</p>	<p style="text-align: center;">F.Ergasheva, M.Okhunzhonova</p> <p style="text-align: center;">Development issues of youth entrepreneurship</p> <p>Abstract. Today, in the process of developing a small business, previously formed ideas about the methods, criteria and mechanisms of creating one's own business are changing. One of such new forms is youth entrepreneurship, which is the organization of small businesses by young people. The article describes the essence of the concept of "youth entrepreneurship" and the relevance of its development. Also, the existing problems in the development of youth entrepreneurship were described, and appropriate recommendations were developed for the elimination of these problems and the development of youth entrepreneurship.</p> <p>Keywords: youth entrepreneurship, youth business incubators, business project, youth entrepreneurship skills and competencies, training webinars, youth entrepreneurship support.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.